

## QURILISH KORXONALARINING TASHKILIY TUZILMALARINING OMILLAR TA'SIRIDA SHAKILLANISHI

**Raximova Nilufar Abduazizovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish  
universiteti tadqiqotchisi

### Annotatsiya

Boshqaruv tashkiliy tuzilmalarining shakli va tarkibiy tuzilishi ko'plab tashkiliy iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi. Qurilish tashkilotlarining tuzilmalariga faoliyat ixtisoslashuvi, tashkilotning kattaligi, bir tashkilotga to'g'ri keladigan xodimlar soni kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Samarqand viloyatidagi qurilish tashkilotlarining xususiyatlarini tadqiq qilish ushbu sohadagi eng maqbul tashkiliy tuzilmalar turini tavsiya qilishga imkon beradi. Mazkur maqolada muallif tomonidan viloyatning qurilish tashkilotini tasniflash bo'yicha ilmiy natijalar joy olgan.

**Kalit so'zlar:** Qurilish, tashkiliy tuzilma, omillar, ixtisoslashuv, tashkilot kattaligi.

### Аннотация

Форма и структурная конфигурация управленческих организационных структур формируются под воздействием различных организационно-экономических факторов. В строительных организациях существенное значение имеют такие факторы, как специализация деятельности, размеры организации и численность работников, приходящихся на одну организацию. Исследование особенностей строительных организаций Самаркандской области позволяет рекомендовать наиболее оптимальные типы организационных структур для данной сферы. В статье представлены научные результаты автора по классификации строительных организаций региона.

**Ключевые слова:** строительство, организационная структура, факторы, специализация, размер организации.

### Abstract

The form and structural configuration of management organizational structures are shaped under the influence of various organizational and economic factors. In construction organizations, factors such as activity specialization, organizational size, and the number of employees per organization play a significant role in determining structural arrangements. Analyzing the characteristics of construction organizations in the Samarkand region makes it possible to recommend the most optimal types of organizational structures for this sector. This paper presents the author's scientific findings on the classification of construction organizations in the region.

**Keywords:** construction, organizational structure, factors, specialization, organizational size.

### KIRISH

Qurilish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi investitsiya faolligi, infratuzilma kengayishi va hududiy

taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qurilish tashkilotlari faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlikni oshirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Mazkur sharoitda boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari qurilish korxonalarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qurilish tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari ularning faoliyat ixtisoslashuvi, kattaligi, xodimlar soni hamda hududiy xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish va ularni amaliy sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu sababli, hududiy darajada qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmalari va ularni shakllantiruvchi omillarni o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur maqolada Samarqand viloyati qurilish tashkilotlari misolida boshqaruv tashkiliy tuzilmalarining omillar ta‘sirida shakllanishi tahlil qilinadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari menejment nazariyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishiga doir masalalar klassik va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari Anri Fayol va Maks Veber kabi olimlarning ishlarida shakllantirilgan bo‘lib, ular boshqaruv funksiyalari, iyerarxiya, vakolat va mas‘uliyat taqsimoti kabi tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritganlar [1], [2]. Mazkur yondashuvlar bugungi kunda ham boshqaruv tuzilmalarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi ilmiy izlanishlarda tashkiliy tuzilmalarning tarmoqlar kesimidagi xususiyatlari, xususan, qurilish sohasida ularning shakllanish omillari chuqurroq o‘rganila boshladi. Qurilish tashkilotlarining murakkab ishlab chiqarish jarayoni, ishtirokchilarning ko‘pligi va faoliyat ixtisoslashuvi boshqaruv tuzilmalarining moslashuvchan va samarali bo‘lishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bir qator tadqiqotlarda qurilish korxonalarida tashkiliy tuzilmalarni tanlashda korxonalar kattaligi, faoliyat turi va xodimlar soni muhim omillar sifatida qayd etilgan [3], [4], [5].

Ayrim ilmiy ishlarda tashkiliy tuzilmalarning evolyutsiyasi va ularning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvi masalalari yoritilgan bo‘lsa, boshqa tadqiqotlarda qurilish tashkilotlarida markazlashgan va funksional tuzilmalar ustunlik qilishi ta‘kidlanadi [6]. Biroq mavjud adabiyotlarning aksariyatida hududiy xususiyatlar hamda quyi boshqaruv pog‘onalarida tashkiliy tuzilmalarning shakllanish jarayoni yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Qurilish tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari va ularni shakllantiruvchi omillarni hududiy kesimda o‘rganish, xususan, Samarqand viloyati misolida tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni to‘ldirishga hamda qurilish sohasida eng maqbul tashkiliy tuzilmalarni tavsiya etishga qaratilgan.

## METODOLOGIYA

Tahlil jarayonida qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmalarini shakllantiruvchi omillarni aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, guruhlash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar asosiy axborot manbai sifatida qabul qilindi. Korxonalar faoliyati ixtisoslashuvi, xodimlar soni va tashkilot kattaligi bo‘yicha tasniflanib, ushbu ko‘rsatkichlarning boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, boshqaruv me’yorlari va xodimlar nisbatiga oid ko‘rsatkichlar orqali mavjud tashkiliy tuzilmalar baholandi. Tadqiqot natijalari qurilish korxonalarida tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish bo‘yicha amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIAJALAR

Qurilishda tashkiliy tuzilmalarning holati va o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganish va tahlil qilish boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishning birinchi bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Nazariy izlanishlar jarayonida shakllantirilgan tadqiqot uslubiga asosan Samarqand viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlarni son jihatdan o‘rganishni tahlil qilishini lozim.

Qo‘yilgan vazifalarni bajarish jarayonida qurilish tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini shakllantiruvchi omillarga mos ravishda tasniflash asosida o‘rganishga qaror qilinadi (1-jadval).

**1-jadval.**

### Samarqand viloyati qurilish tashkilotlari tashkiliy tuzilmasini shakllantiruvchi omillarning tasnifi<sup>1</sup>

| Geografik joylashuv bo‘yicha  | Kattaligi bo‘yicha  | Ixtisoslashuv bo‘yicha                           | O‘rtacha xodimlar soni bo‘yicha             |
|---|---|--|---|
| Investitsion qurilish bozorining sig‘imiga bog‘liqligini ko‘rsatadi | Boshqaruv funksiyalarini taqsimlash darajasini ko‘rsatadi | Boshqarish me‘yorlarini belgilashga imkon beradi | Boshqaruv tuzilmalarining turini belgilaydi |

Tahlilda viloyatda qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ixtisoslashuvini o‘rganish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifaning mazmuni shundan iboratki, korxonaning ixtisoslashuvi mos ravishda, mehnat resurslariga, mexanizatsiyalash darajasiga, mehnat sarflariga o‘ziga xos talablar qo‘yadi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini tadqiq qilish va baholash uchun qator ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar kuzatiladigan va kuzatilmaydigan omillarni ifodalashga qaratilgan bo‘ladi. Kuzatiladigan omillarga bog‘liq ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lum darajada ma’lumotlar bazasi mavjud bo‘lgani uchun bizlar shularning bir qismini obyekt sifatida qabul qilingan. Qurilish

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

korxonalarining boshqaruv tuzilmalarini ko'rsatib boruvchi tasniflarda quyidagi belgilarni muhim hisoblanadi:

- Ishlab chiqarish jarayonida bir rahbar (boshqaruv) xodimiga to'g'ri keladigan ishlarning o'rtacha soni, ya'ni boshqaruv ta'siri me'yorlari;
- Ishlab chiqarish va boshqaruv apparati xodimlarining o'zaro nisbati;
- Rahbar xodimlar va xizmatchilarning o'zaro nisbati.

Statistik organlari tomonidan qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat turlari, tasniflanishiga binoan 27 ta alohida turga bo'linib kuzatib boriladi. Faoliyat turlari bo'yicha tasniflashning asosiy maqsadi korxonalarda qo'shilgan qiymat yaratishning xususiyatlarini aks ettirishdir. Bunday tasniflash korxonalarining boshqaruv xususiyatlarini hisobga olmaydi, faqat ishlab chiqarishning yakuniy natijasini ko'rsatishga harakat qiladi. Qo'yilgan maqsadga ko'ra boshqaruv tuzilmalarini o'ziga xosligini tadqiqot qilish uchun bizlar ushbu tasniflash belgilarini takomillashtirish zarur.

Qurilish korxonalarini tasniflashda ixtisoslashuv turi va bir rahbar xodimga to'g'ri keladigan ishlar soni, ya'ni boshqaruvchanlik me'yorlari asosiy omil sifatida qabul qilindi. Obyektlarning funksional xususiyatlari hamda bajariladigan ishlarning mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, tadqiqot doirasida qurilish korxonalarini oltita asosiy guruhga ajratildi. Ularga binolarni qurish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, energetik inshootlar va tarmoqlarni barpo etuvchi korxonalar, suv va oqova inshootlari hamda tarmoqlarini quruvchi tashkilotlar, loyiha-qidiruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, alohida turdagi qurilish ishlarini amalga oshiruvchi subyektlar, shuningdek, yo'l va ko'priklar qurishga ixtisoslashgan tashkilotlar kiritildi.

Korxonalarini bunday tasniflash ishlab chiqarish texnologiyasi, brigada va zveno tarkibi hamda boshqaruv faoliyatining xususiyatlari bilan izohlandi. Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyatida qurilish korxonalarini orasida binolar qurilishi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yetakchi o'rinni egallagan. Xususan, 2023-yilda ushbu yo'nalishda faoliyat yuritgan korxonalar soni 1447 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 1165 taga yetgan. Natijada ushbu guruhning umumiy ulushi 57 foizdan 56 foizga kamaygani kuzatildi (2-jadval).

**2-jadval.**

**Samarqand viloyatida qurilish korxonalarini sonining ixtisoslashuvi bo'yicha taqsimlanishi [8]**

| T/r         | Faoliyat turi va ixtisoslashuvi               | Soni, dona |          | Ulushi, foizda |     |
|-------------|---|------------|----------|----------------|-----|
|             |   | 2023-yil   | 2024-yil |                |     |
| 1           | Binolarni qurish                              | 1447       | 1165     | 57             | 56  |
| 2           | Energetik inshootlar va tarmoqlar             | 251        | 253      | 10             | 12  |
| 3           | Suv va oqova inshootlari va tarmoqlari        | 299        | 207      | 12             | 10  |
| 4           | Loyiha-qidiruv tashkilotlari                  | 63         | 54       | 2              | 3   |
| 5           | Alohida turdagi qurilish ishlari, shu jumlada | 297        | 226      | 12             | 11  |
| 6           | Yo'l va ko'priklar qurish                     | 173        | 161      | 7              | 8   |
| <b>Jami</b> |   | 2530       | 2066     | 100            | 100 |

Keyingi o‘rinda yetakchilik qiluvchi korxonamiz bu suv va oqova inshootlari va tarmoqlari qurilishi bo‘lib, 2023-yili 299 ta va 2024-yilda 207ta 92taga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bir yilda 2%ga kamaygan bo‘lib, keyingi korxonamiz bu alohida turdagi qurilish ishlari bilan shug‘ullanuvchi qurilish korxonalari va ular ham 297tadan 226 taga kamaygan. Faqat energetik inshootlar va tarmoqlar qurilishi korxonalari 2%ga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin 251 tadan 253 taga. Eng oxirgi o‘rinlarda esa yo‘l va ko‘prik qurish (173-161) hamda loyiha-qidiruv tashkilotlari (63-54) kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Qurilish sohasida eng ko‘p faoliyat olib boruvchi korxonalar bu binolarni qurish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar bo‘lsa, eng quyi pog‘onada loyiha-qidiruv tashkilotlari turibdi.

Qurilish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarini foizlar nisbatida olsak, 56%bilan birinchi o‘rinda bino qurilishi bo‘lsa, 12%, 11% va 10% lar bilan energetik inshootlar qurilishi, alohida turdagi qurilish ishlari va suv va oqova inshootlari va tarmoqlari qurilishi egallab turibdi. Nisbatan past foizda (8%) yo‘l va ko‘priklar qurilishi bo‘lsa, eng quyi foizni loyiha-qidiruv tashkilotlari egallab turibdi (3%).

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarining turi va shaklini tanlashda korxonaning xodimlar soni muhim o‘rin egallaydi. Samarqand viloyatidagi qurilish korxonalarida ishlaydigan xodimlarning o‘rtacha sonini quyidagi jadvalda keltirib o‘tdik (3-jadval).

3-jadvalda 2023-yil va 2024-yilda har bir ixtisoslik uchun alohida o‘rtacha xodimlar sonini hisoblab chiqdik va natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2023yil jami 23390 ta xodim 2530 ta korxonada faoliyat olib borganini aniqladik. 2024-yilga kelib, xodimlar va korxonalarining kamayishiga qaramay o‘rtacha xodimlar soni ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin (9,24dan 9,96gacha). Alohida ixtisoslashuv bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, eng ko‘p miqdorni yo‘l va ko‘priklar qurishida ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi o‘rinda energetik inshootlar va tarmoqlar, keyin esa binolarni qurish, to‘rtinchi o‘rinda suv va oqova inshootlari (4.4 dan 6.7 gacha) va oxirgi o‘rinlarda alohida turdagi qurilish (3.7 dan 5.7 gacha) bilan loyiha-qidiruv tashkilotlari (3.6 dan 2.8 gacha) turadi.

### 3-jadval.

#### Korxonalarining ixtisoslashuvi bo‘yicha o‘rtacha xodimlar sonini aniqlash<sup>1</sup>

| T/r         | Guruh nomi                                     | Korxonalar soni |             | Xodimlar soni |              | O‘rtacha xodimlar soni |             |
|-------------|--|-----------------|-------------|---------------|--------------|------------------------|-------------|
|             |  | 2023-yil        | 2024-yil    | 2023-yil      | 2024-yil     | 2023-yil               | 2024-yil    |
| 1           | Binolarni qurish                               | 1447            | 1165        | 14146         | 10983        | 9,8                    | 9,4         |
| 2           | Energetik inshootlar va tarmoqlar              | 251             | 253         | 2641          | 2961         | 10,5                   | 11,7        |
| 3           | Suv va oqova inshootlari va tarmoqlari         | 299             | 207         | 1313          | 1377         | 4,4                    | 6,7         |
| 4           | Loyiha-qidiruv tashkilotlari                   | 63              | 54          | 224           | 149          | 3,6                    | 2,8         |
| 5           | Alohida turdagi qurilish ishlari, shu jumladan | 297             | 226         | 1104          | 1283         | 3,7                    | 5,7         |
| 6           | Yo‘l va ko‘priklar qurish                      | 173             | 161         | 3962          | 3817         | 22,9                   | 23,7        |
| <b>Jami</b> |  | <b>2530</b>     | <b>2066</b> | <b>23390</b>  | <b>20570</b> | <b>9,24</b>            | <b>9,96</b> |

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

2024-yil ko‘plab korxonalarda o‘rtacha xodimlar soni kamayganligiga qaramay, loyiha-qidiruv tashkilotlarida 0.8% va binolarni qurishda 0.4%ga ko‘paygan. Lekin yo‘l va ko‘prik qurilishida 0.8%, energetik inshootlar va tarmoqlarda 1.2%, alohida turdagi qurilish ishlarida 2% va suv va oqava inshootlari va tarmoqlarida 2.3%ga kamayganligini ko‘rsatib o‘tilgan. Keyingi jadvalda Samarqand viloyatidagi qurilish korxonalarining kattaligi bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilindi (4-jadval).

**4-jadval.**

**2023-2024-yillarda Samarqand viloyatidagi qurilish korxonalarining kattaligi bo‘yicha taqsimlanishi<sup>1</sup>**

| T/r         | Korxonaxodimlar soni  | Yillar   |          | O‘zgarish |        |
|-------------|-----------------------|----------|----------|-----------|--------|
|             |                       | 2023-yil | 2024-yil | sonda     | foizda |
| 1           | 5 kishigacha          | 1655     | 1204     | - 451     | 72,7   |
| 2           | 5dan 10 kishigacha    | 348      | 369      | -21       | 106,0  |
| 3           | 10 dan 25 kishigacha  | 296      | 292      | - 4       | 98,6   |
| 4           | 25 dan 50 kishigacha  | 141      | 126      | - 5       | 89,4   |
| 5           | 50 dan 100 kishigacha | 60       | 51       | - 9       | 85     |
| 6           | 100 kishidan katta    | 30       | 24       | - 6       | 80     |
| <b>Jami</b> |                       | 2530     | 2066     | - 464     | 81,7   |

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, Samarqand viloyatidagi qurilish korxonalarining aksariyati mikrofirmabo‘lib, xodimlar soni 5 kishidan kam sanaladi. 2023-2024-yillar davomida qurilishda optimizatsiya jarayonlari davom etganligi sababli barcha toifidagi korxonalar sonining kamayishi kuzatilgan. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi turi va shakliga ta’sir o‘tkazuvchi muhim omil – bu korxonada ishlovchi o‘rtacha xodimlar soni (5-jadval).

**5-jadval.**

**2023-2024-yillarda Samarqand viloyatidagi qurilish korxonalarini o‘rtacha xodimlar soni<sup>2</sup>**

| T/r                      | Korxonaning kattaligi bo‘yicha tasnif belgisi | Yillar bo‘yicha xodim o‘rtacha soni |          | O‘zgarish, +/- |
|--------------------------|---|-------------------------------------|----------|----------------|
|                          |   | 2023-yil                            | 2024-yil |                |
| 1                        | 5 kishigacha                                  | 1,46                                | 1,64     | 0,18           |
| 2                        | 5dan 10 kishigacha                            | 6,15                                | 6,04     | -0,11          |
| 3                        | 10 dan 25 kishigacha                          | 14,79                               | 14,85    | 0,06           |
| 4                        | 25 dan 50 kishigacha                          | 35,15                               | 34,73    | -0,42          |
| 5                        | 50 dan 100 kishigacha                         | 69,95                               | 68,88    | -1,07          |
| 6                        | 100 kishidan katta                            | 176,47                              | 172,79   | -4,32          |
| <b>Jamidagi o‘rtacha</b> |   | 9,24                                | 9,96     | 0,72           |

Yuqorida o‘rtacha xodimlar soni har bir qurilish yo‘nalishi bo‘yicha alohida tahlil qilingan bo‘lsa, mazkur jadvalda korxonalarining kattaligiga qarab o‘rtacha xodimlar

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

soni aniqlandi. Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2023-yilda yirik qurilish korxonalarida o'rtacha xodimlar soni 176,47 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 172,79 kishigacha kamaygan. Bunday pasayish asosan 50–100 nafar hamda 25–50 nafar xodimga ega bo'lgan korxonalar guruhida kuzatildi. Shu bilan birga, 10–25 nafar va 5 nafargacha xodimga ega bo'lgan ayrim kichik korxonalarda o'rtacha xodimlar sonining oshishi qayd etildi. Ushbu holat qurilish sohasida korxonalar tuzilmasining optimallasuvi va kichik subyektlar faoliyatining nisbatan faollashuvi bilan izohlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijalari qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmalari ularning faoliyat ixtisoslashuvi, kattaligi va xodimlar soni kabi omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatdi. Samarqand viloyati misolida amalga oshirilgan tahlillar qurilish sohasida asosan kichik va mikro korxonalar ustunlik qilayotganini, yirik korxonalar ulushining esa nisbatan kam ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, qurilish yo'nalishlari bo'yicha xodimlar soni va boshqaruvchanlik me'yorlarida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Bu holat boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini tanlashda yagona yondashuvdan ko'ra, moslashuvchan va omillarga asoslangan qarorlar qabul qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: qurilish korxonalarida tashkiliy tuzilmalarni shakllantirishda faoliyat ixtisoslashuvi va xodimlar sonini asosiy mezon sifatida hisobga olish; kichik va o'rta korxonalarda soddalashtirilgan va markazlashgan boshqaruv tuzilmalarini, yirik korxonalarda esa funksional yoki loyihaviy yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish; boshqaruvchanlik me'yorlarini optimallashtirish orqali rahbar xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анри Файоль. Общее и промышленное управление. Перевод на русский язык: Б. В. Бабина-Кореня. — М., 1923. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. 28.08.2012. <https://gtmarket.ru/library/basis/5783>
2. Weber, M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology / M. Weber. — Berkeley: University of California Press, 1978. — 1469 p.
3. Лыткина Ю.А. Формирование и развитие организационных структур управления в процессе реструктуризации строительных предприятий. Автореферат к.э.н. — Москва, 2007.
4. Макаренченко М.А. Теория и методология формирования организационной культуры как фактора развития структуры и методов управления предприятием. Автореферат к.э.н Москва, 2020.
5. Шульженко Н.А. Разработка методологии формирования организационных структур строительного комплекса в условиях неопределенности информации. Автореферат д.т.н. — Москва 2002.

6. Korol S.P. структура управления организации как систематическая основа ее техники организационного и экономического развития строительством Экономика, предпринимательство и право № 12'2021 – с.3005-3016.

7. <https://www.lucidchart.com/blog/types-of-organizational-structures>

8. Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси Самарқанд вилояти бош бошқармаси. <https://siat.stat.uz/reports-filed/425/map-data>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**